85
h

SH. RAXIMOV
A. LUTFULLAYEV



CHOLG‘USHUNOSLIK

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan
(2008-yil, 30-oktabr, 3-bayonnoma)

Mualliflar:

SH.RAXIMOV – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
A.LUTFULLAYEV – O'zDK professori

Muharrir:

B.SH.ASHUROV – O/zbekiston davlat konservatoriyasi aspiranti

Taqrizchilar:

A.UMAROV – A.Qodiriy nomidagi TDMI professori,

Q.MAMIROV – Nizomiy nomidagi TDPU
«Xalq qo'shiqchiligi va dirijyorligi» kafedrasi professori

Ushbu qo'llanma musiqa, pedagogika oliy o'quv yurtlari, musiqa pedagogika kollejlari va maktablari o'qituvchi, talaba va o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Unda rekonstruksiyalangan o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri tarkibiga kirgan alohida cholg'ular kabi, umuman orkestr haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Bu o'quv qo'llanma havaskorlik va professional orkestr va ansambllarini tuzishda ham foydali bo'lishi mumkin.

© «Musiqa» nashriyoti, 2010.
© Sh.Raximov, A.Lutfullayev, 2010.

www.ziyouz.com kutubxonasi

SO‘Z BOSHI

Ushbu qo‘llanmaning yaratilishi uchun mualliflarning ko‘p yillik musiqiy – p□dagogik faoliyati, ilmiy izlanishlari, konts□rt – ijrochilik faoliyati asos bo‘ldi. Qo‘llanmani yaratishda shuningd□k simfonik va rus xalq cholg‘u asboblari ork□stri «Cholg‘ushunoslik» kursi yaratuvchilarining tajribasiga tayanildi.

Ilovalarda musiqiy t□rminlarning italyancha transkriptsiyasi va sharlar k□ltiriladi bu partituralarni o‘z ishni osonlashtrishni ko‘zda tutadi.

O‘zb□k xalq cholg‘u asboblari ork□stri ijro imkoniyatlari Bilan tanishtirish maqsadida Ilovada ork□str uchun asarlarning tahminiy ro‘yxati k□ltirildi.

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI
INV N2

I BO'LIM

NAZARIY QISM

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning tarkibiga kiradigan guruhlar

Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan - o'zbek xalq cholg'ulari orkestri XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lib, bir necha o'n yillarni o'z ichiga olgan shakllanish, rivojlanish, mukammallashish jarayonini o'z boshidan kechirgan. Tajriba sifatida kiritilgan talaygina cholg'ular: hozirgi g'ijjagimizning kattalashgan ko'rinishlaridagi – g'ijjak-bas, g'ijjak-kontrabas, temperasiyaga solishning hech ilojisi bo'lmagan an'anaviy qadimiy cholg'umiz – surnay (lekin partiturada nomi saqlanib qolgan) amaliyotdan o'tmasdan, o'z-o'zidan o'sha davrda tuzilgan musiqiy badiiy jamoalarimizning asosiy tarkibidan chiqib ketgan. Lekin an'anaviy surnayimizni epizodik cholg'u sifatida (karnay, sibizg'a, changqobuz kabi) kompozitorlar partituraga kiritishgan, bundan keyin ham asarlarning maxsus, folklorga yaqin bo'laklarida kiritishlari mumkin. Sanab o'tilgan cholg'ularning o'rniga - g'ijjak-qobuz bas, g'ijjak-qobuz kontrabas yangitdan yaratilib amaliyotdan o'tdi, surnay o'rniga evropa cholg'usi hisoblanmish – goboy yoki uning ham o'rniga dirijyorlar bayan-akkordeon (tembr jihatidan yaqin registrlari borligi uchun) kabilarni O'zXChO (O'zbek xalq cholg'ulari orkestri) tarkibiga kiritib kelmoqdalar.

O'zXChO oiladosh cholg'ulardan tuzilgan 5 ta guruhdan tashkil topgan bo'lib, partiturada ular quyidagi ketma-ketlikda yuqoridan pastga qarab joylashadi:

1. Puflama cholg'ular guruhi;
2. Torli-urma cholg'ular (changlar) guruhi;
3. Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi;
4. Urma zarbli cholg'ular guruhi;
5. Torli-kamonli cholg'ular guruhi.

· Puflama cholg'ular guruhiga kichik nay (pikkalo), nay (katta), surnay va qo'shnay kiradi.

· Torli urma cholg'u guruhiga chang kiradi.

· Torli-chertma (mizrobli) guruhiga rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur, qonun, kontrabas, dutor, dutor bas asboblari kiradi.

· Urma zarbli cholg'ular guruhiga doyra, nog'ora, buben, uchburchak, litavra, ksilafon, qayroqtosh, tarelka kiradi.

· Torli-kamonli guruhga g'ijjak (I-II), g'ijjak alt, g'ijjak qobuz bas, g'ijjak qobuz kontrabaslar kiradi.

O'quv qo'llanmani diqqat bilan o'qib, mavzularini o'zlashtirishni boshlasangiz, ayrim, faqatgina musiqachilar tushuna oladigan iboralarga duch kelasiz. Keyingi kasbiy faoliyatingizda quyidagi iboralar tez-tez uchrab turadi, ularni izohlari bilan o'rganib, bir umrga tushunib olishingiz zarur:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Puflama cholg'ular. O'z nomi bilan, demak, faqat puflasa sado taratadigan cholg'ular bunday nomlanadi. Cholg'uning g'ovak ustinida ma'lum miqdorda dam (havo) yig'ilsa, bosim ostida barmoqlar harakati yoki lab mahoratidan turli balandlikda yoqimli tovushlar tartibli yangraydi. Bu toifa cholg'ularni ayrimlar – damli cholg'ular deb ham ishlataverishadi;

Torli cholg'ularning sozlanishi. O'z nomi bilan ma'lum bir ko'rinishdagi, tovush chiqarish uchun bir nechtadan yo'g'on yoki ingichka torlar tortilgan cholg'ular nazarda tutiladi. Torlari ichakdan yoki misdan bo'lishi mumkin. Ulardan sado taratishning asosiy usullari ham turlicha, masalan, barcha torli cholg'ularga nisbatan (bir-biridan farqlash uchun) mana bunday iboralar qo'llaniladi.

- Torli-urma (demak, torlariga urib chalinadi),
- Torli-chertma (demak, torlarini chertib yoki tirnab chalinadi),
- Torli-kamonli (demak, torlari ustida kamon tortib chalinadi);

Cholg'ularning yozilish diapazoni. Har qanday cholg'u o'z tovushlarining sadolanishiga qarab aniq diapazonga ega bo'ladi. Butun dunyo musiqachilari qabul qilgan 5 ta nota chizig'ida sozandalar notaga qarab chalishlarida qulaylik zarurligi uchun musiqiy kalitlar tanlangan va o'sha kalitlarda (eng pastki tovushdan eng baland tovushgacha) notalar yordamida kuylar yoziladi. Mana shu nota yozuvlari «cholg'ularning yozilish diapazoni» deyiladi.

Cholg'ularning eshitilish diapazoni. Aksariyat cholg'ularda musiqa notasi qanday yozilgan bo'lsa, o'shanday eshitiladi. Ayrim cholg'ularda esa notalar yozilganidan ko'ra boshqacha eshitilishi mumkin – past yoki baland. Bunday cholg'ular musiqachilarning tilida «transpozisiya qilinadigan cholg'ular» deyiladi. Evropa cholg'ulari turli intervallarga (sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, kabi) transpozisiya qilinishi mumkin. Bizning milliy cholg'ularimiz esa asosan yozilishiga qaraganda 1 oktava yuqori yoki 1 oktava past eshitiladi. Keyinchalik bunday cholg'ularni aniq bilib olasiz.

Cholg'ularning eng ko'p qo'llaniladigan yozilish diapazoni. Ayrim cholg'ularimiz o'zining butun diapazoni bo'ylab jarangdor tovush taratmasligi mumkin. Ma'lumki, musiqasevarlarga jarangdor bo'lmagan tovushlar yoqmaydi. Shuning uchun ijodkorlar aksariyat cholg'ularning jarangdor tovushlarini ishlatib asarlar yozishadi. «Eng ko'p qo'llaniladigan yozilish diapazoni» deb shunga aytiladi.

Cholg'ularning transpozitsiyalanishi. «Cholg'ularning eshitilish diapazoni» iborasi boshqacha qilib aytganda, «cholg'ularning tranpozitsiyalanishi» ham deb nomlanadi. Demak, notada yozilish biru, eshitilishi esa boshqa bo'ladi.

Epizodik cholg'ular. Kino san'atida «epizodik rollar» degan tushuncha bor, bu degani, ma'lum bir obraz (aktyor) kerak paytda bir paydo bo'ladi-yu, so'ng kerak bo'lmaydi. Buni cholg'ularga nisbatan ham ishlatsa bo'ladi, musiqiy asarning qaysidir bir qismida o'z tovush sadolari bilan paydo bo'ladi-yu, so'ng yangramaydi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida ishlatilishi mumkin bo'lgan bir talay xususiyatli cholg'ularimiz ham bor, ular – karnay, an'anaviy surnay, sibizg'a, chang qobuz, qonun, ud, sato, safoyil, qayroq kabilardir.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uch xil tarkibda tashkil qilinishi mumkin. Katta, o'rta, kichik. Jadvalda quyidagicha aks etadi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

KATTA TARKIB		O'RTA TARKIB		KICHIK TARKIB	
Nay pikkolo	1	-		-	
Nay	2	Nay	1	Nay	1
Surnay	2	Surnay	1	Surnay	1
Qo'shnay	2	Qo'shnay	1	Qo'shnay	1
Chang	4	Chang	2	Chang	2
Rubob prima	6	Rubob prima	4	Rubob prima	2
Qashqar rubob I	6	Qashqar rubob I	4	Qashqar rubob I	2
Qashqar rubob II	2	Qashqar rubob II	2	Qashqar rubob II	2
Afg'on rubob	4	Afg'on rubob	2	Afg'on rubob	2
Tanbur	3	Tanbur	2	Tanbur	1
Dutor prima	2	Dutor prima	1	Dutor prima	1
Dutor alt	4	Dutor alt	2	Dutor alt	2
Dutor bas	4	Dutor bas	2	Dutor bas	2
Dutor kontrabas	2	-		-	
Doira, nog'ora, katta-kichik barabanlar, buben, tarelka, uchburchak, qayroq, ksilafon, litavra		Doira, nog'ora, buben, tarelka, uchburchak, litavra		Doira, buben, tarelka, uchburchak	
Gijjak I	6	Gijjak I	4	Gijjak I	4
Gijjak II	4	Gijjak II	3	Gijjak II	2
Gijjak alt	3	Gijjak alt	2	Gijjak alt	1
Gijjak-qobuz bas	4	Gijjak-qobuz bas	3	Gijjak-qobuz bas	2
Gijjak-qobuz kontra bas	3	Gijjak-qobuz kontra bas	2	Gijjak-qobuz kontra bas	1

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. PUFLAMA CHOLG'ULAR GURUHI

O'zbek xalq cholg'ular orkestrining asosiy guruhlaridan biri puflama cholg'ulardir. Puflama cholg'ular guruhiga nay pikkolo, nay, qo'shnay va surnay kiradi. Ushbu cholg'ularning tovushqator asosi tabiiy tovushlardan tashkil topgan bo'lib, ular dam bosimi (puflash) orqali hosil qilinadi.

NAY PIKKALO

Asosiy tovushqatori



Diapazon

Foydalaniladigan tovush kengligi.

Nay pikkalo yozilganiga qaraganda bir oktava baland eshitiladi. Masalan:

Yozilishi

Eshitilishi

Pikkaloning eng ko'p foydalaniladigan diapazoni o'rta registrining ikkinchi yarmi va yuqori registri hisoblanadi. Bu cholg'uning ushbu bo'lagi nayga qaraganda yengil va jarangdor sadolanadi. Nay pikkalo har xil melizm(bezak)lar chalish imkoniyatiga ega.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Nay pikkalo	(«lya»)	«Re» birinchi oktava. «Sol» 4 oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava baland eshitiladi	Transpozitsiya qilinadi

www.ziyouz.com kutubxonasi

Asosiy tovushqatori

Qattiq puflash

Diapazon

Foydalaniladigan tovush kengligi



Nay ham pikkologa o'xshab orkestrning yuqori tovushlarini ijro qiluvchi cholg'u hisoblanadi va yozilganidek eshitiladi. Masalan:

Yozilishi

Eshitilishi

Baland registrlar tovushi jilosi jihatidan har biri o'ziga xoslik kasb etadi. Ya'ni, pastki registrda quyuq, so'lim jaranglagan holda ***pp*** chalish ancha qiyin. O'rta registr jozibador va tobora balandlashgani sari tovushlar keskin tus oladi. Ikkinchi oktava ***lya*** va undan baland notalar ***f*** chalish orqali hosil qilinadi. Nayda har xil passaj, melizm, sakratma usulida asarlar chalish mumkin.

Nay to'liq orkestrda asosan ikkitadan, juft-juft ishlatiladi. Agar kompozitor (cholg'ulashtiruvchi) o'z asarida mohiyatdan kelib chiqib ma'qul ko'rsa uch yoki to'rttadan ham cholg'u partiyalarini partituraga kiritishi mumkin. Buning uchun (ijro nazarda tutilayapti) orkestrga qo'shimcha sozandalarni taklif etish zarur bo'ladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Nay	(«lya»)	«Lya» birinchi oktavadan – «Re» 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

SURNAY

www.ziyouz.com kutubxonasi

Asosiy tovushqatori



* Surnayning ikkinchi pardasi kam ishlatiladi, bu parda yordamchi parda hisoblanadi.

Diapazon



Foydalaniladigan tovush kengligi

Surnay tovushi orkestrda ajralib turadigan tovush hisoblanadi, yozilganidek eshitiladi. Masalan:

Yozilishi

Eshitilishi

Surnay tembr jihatidan kuchli, keskin tovush beradi. U bir tekis melodik yo'lni o'zining aniq intonatsiyasi, to'liq sadolanishi va texnik imkoniyati bilan meyoriga yetkazib boradigan o'ziga xos jozibali tembrga egadir.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Surnay	(«lya») 1-oktava	«Do-diez» birinchi oktavadan «Do» uchinchi oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	qilinmasligi Transpozitsiya qilinmaydi

QO'SHNAY



Asosiy tovushqatori.



Qo'shnay-ikkita bir xil kattalikdagi qamish naychalardan yasalgan bo'lib, uning texnik imkoniyatlari cheklangan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Diapazon

Foydalaniladigan tovush kengligi

Orkestrda garmonik tovushlarini boyitish uchun ikkinchi, uchinchi tovushlar tuzimi berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:



Orkestrda qo'shnay asosiy (sola) asosiy kuyni ijro eta oladi. Orkestr jo'rligida kuylar ham chalish imkoniyatiga ega. Bu asbob uchun skripka kalitida uchta belgili tonliklarda yozilgan kuylarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi, yozilganidek eshitiladi. Qo'shnayning dinamik imkoniyatlari katta, ***pp*** dan ***ff*** gacha chalish mumkin.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Qo'shnay	(«lya»)	«Re» birinchi oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

Puflama cholg'ular guruhida ishlatilishi mumkin bo'lgan – karnay, an'anaviy surnay, sibizg'a, changqobuz, kichik nay (nay pikkalo) kabi cholg'ular – epizodik cholg'ular sifatida ishlatilishi mumkin. Ular o'quv jarayonida ham, mustaqil ijodiy jarayonda ham alohida pishgan ijodiy loyiha (fikr)ga binoan tanlanadi. Shuning uchun epizodik cholg'ularni zarur topilsa, mustaqil o'rganib olasiz.

2. TORLI URMA CHOLG'U GURUHI

CHANG.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu asbob jarangli tovushga ega bo'lib, orkestrdagi o'rni kattadir. Chang asbobining torlari oralig'i xromatik joylashgan.

Diapazon Foydalaniladigan tovush kengligi

Bu guruhga katta mas'uliyat yuklangan holda, ular asosiy kuyni, jo'rnavozlikni har xil interval, arpedjio, glissando, pissikato usullarini bemalol chaladi. Virtuoz asarlar chalish imkoniyatiga ega. Masalan:

Nota yozuvidagi tovushni beradi. Orkestr jo'rligida yirik asarlar (solo) chalishi mumkin. Cholg'ulashtirish jarayonida:

Chang + nay

Chang + rubob prima

Chang + nay + prima rubob va boshqa orkestr guruhi asboblari bilan ham chiroyli tovush jilosini paydo qiladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Changlar	Yarim tondan temperatsiya bo'yicha (xarraklar joylashuvidan kelib chiqadigan noziklikni alohida o'rganish lozim).	«Sol» kichik oktavadan – «Fa diez» 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

Torli-urma cholg'ular guruhida «qonun» cholg'usining ishlatilishi ham hozirgi kunda amaliyotga kirib bormoqda.

3. MIZROBLI CHOLG'ULAR GURUHI

Bu guruhga quyidagi asboblar kiradi: prima rubob, qashqar rubob, afg'on rubob, tanbur, dutorlar (prima, alt, sekunda), dutor bas, dutor kontrabas.

PRIMA RUBOB



www.ziyouz.com kutubxonasi

Sozlanishi

Diapazoni

Rubob prima katta imkoniyatga ega bo'lib, butun diapazonida bir xil tovush chiqaradi. Rubob prima orkestrning etakchi cholg'u asboblaridan biri hisoblanadi. Bu guruh orkestrda asosiy mavzuni, jo'rnavozlik, virtuoz, kuychang misralarini ham chalish imkoniyatlariga ega. Prima rubobda ***pp, ff*** rez (tremolo), stakkato, pissikato, detashe chalishi mumkin. Nota yozuvidagi tovushni beradi.

Foydalaniladigan nota oralig'i.

Rubob prima + qashqar rubob
Rubob prima + nay
Rubob prima + chang
Rubob prima + g'ijjak va boshqa asboblar bilan ham jozibali, kuchli va jarangdor tovush hosil qiladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Rubob-prima	1-tor«Mi» ikkinchi oktava; 2-tor «Lya» birinchi oktava; 3-tor «Re» birinchi oktava; 4-tor «Sol» kichik oktava.	«Sol» kichik oktavadan – «Mi» 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

QASHQAR RUBOB

Sozlanishi



Diapazoni

Foydalaniladigan tovush kengligi

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

Orkestrda qashqar rubobi mungli, jozibali, xalq kuylariga yaqin ohanglarni ijro etishi mumkin. Sharq mamlakatlari ohanglari juda chiroyli jaranglaydi. Kavkaz xalqlari kuylari shu guruhga berilsa, o'ziga xos tovush jarangi bilan ajralib turadi. Har xil melizmlar (forshlag, mordent, trel, nolalar) ijrosi yoqimli va aynan kerak xarakterni beradi.

Masalan: qo'shni davlat xalqlari – Ozarbayjon, Gruziya, Tojik millat asarini yorqin ochib beradi. Qashqar rubobi asosiy kuylardan tashqari jo'rnavoz qismlarni ham yaxshi bajaradigan guruh hisoblanadi. Jo'rnavozlikda arpedjo, intervallar maqsadga muvofiq zich jaranglaydi. Cholg'ulashtirish jarayonida

Qashqar rubob + prima rubob
Qashqar rubob + afg'on rubob
Qashqar rubob + dutor + tanbur
Qashqar rubob + bas guruhlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Qashqar ruboblar	1-va 2- qo'sh torlar - «Lya» birinchi oktava; 3- va 4- qo'sh torlar «Mi» birinchi oktava; 5-tor** «Si» yoki «Lya» kichik oktava.	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Fa» 3-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

AFG'ON RUBOBI



Sozlanishi



Diapazoni

Foydalaniladigan tovush kengligi

Orkestrda afg'on rubobi o'rta registrli kuy yo'nalishini chaladi. Bas guruhlariga yaqinligi bor. Bas guruhlari chaladigan kuylarga afg'on rubobi qo'shilsa, tovush jilosi jihatidan har biri o'ziga xoslik kasb etadi. Ya'ni, past registrda quyuq va so'lim jaranglagan kuyni o'rta registrli afg'on rubob tovushlari to'ldirib turadi. Asar yana ham zich ohang beradi. Orkestrda afg'on rubob jo'rnavozlik yo'nalishiga ham katta hissa qo'shadi. U orkestrda ***rr, ff,*** interval, arpedjiolarni chalish imkoniyatiga ega. Cholg'ulashtirish jarayonida

www ziyouz.com kutubxonasi

Afg'on rubob + qashqar rubob + dutor + tanbur
Afg'on rubob + dutor bas
Afg'on rubob + g'ijjak alt
Afg'on rubob + g'ijjak bas variantlari chiroyli birlikni tashkil qiladi. Yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Afg'on rubob	1-va 2- qo'sh torlar «Lya» birinchi oktava. 3- va 4- qo'sh torlar «Mi» birinchi oktava. 5-tor «Si» yoki «Lya» kichik oktava.	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

TANBUR

Tanbur yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Tanbur sozi o'rta va past registr tovushini beradi, kuy asosan 1 chi (lya) torida chalinadi, qolgan torlari ikkinchi tovush (akkord) ni beradi. Tanbur sozi noxun bilan chalinadi, u ko'rsatkich barmoqga taqiladi.

Sozlanishi Diapazoni



Foydalaniladigan tovush kengligi



Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Tanbur	1-tor «lya» kichik oktava 2-tor «mi» kichik oktava 3-4-tor «lya» kichik oktava	«mi» kichik oktava «re» 3 oktava	«mi» katta oktava «re» 2 oktava	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

DUTOR



www.ziyouz.com kutubxonasi

Dutor O'zbekistonda juda keng ommaviylashgan cholg'u asboblaridan biridir. O'zbek xalqi bu cholg'uni sevib chaladi. O'zbek xalq kuylarini mohirona ijro etish imkoniyati bor asboblardan biri hisoblanadi. Dutorning bir nechta turlari bor (prima, sekunda, alt, tenor, bas va kontrabas).

Dutor prima
sozi

diapazoni

foydalaniladigan
tovush kengligi

Dutor sekunda
sozi

diapazoni

foydalaniladigan
tovush kengligi



Dutor alt
sozi

diapazoni

foydalaniladigan
tovush kengligi



Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Dutor prima	1-tor «Lya» 1 oktava 2-tor «Mi» 1 oktava	«mi» 1 oktava «lya» 3 oktava	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
Dutor-sekunda	1-tor «Re» 1 oktava 2-tor «Lya» kichik oktava	«lya» kichik oktava «re» 3 oktava	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
Dutor alt	1-tor «lya» 1 oktava 2-tor «mi» 1 oktava	«mi» kichik oktavadan «mi» 3 oktava	«Mi» kichik oktava «Do» 3 oktava	Yozilgandan 1 oktava past eshitiladi

Dutor alt yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Dutor alt, dutor prima orkestr jo'rligida yirik asarlar (solo) chalishi mumkin. Dutor alt mungli, mayin va o'zining yoqimli tovushi bilan boshqa asboblardan ajralib turadi. Tovush jihatidan ancha past, texnik imkoniyati ham kichkina, lekin oxirgi yillar davomida tajribali mohir ijrochilar bu asbob imkoniyatlarining barcha qirralarini ochib berishdi. Dutor prima asbobida rus, chet el akademik musiqa asarlarining virtuoz qismlarini yorqin ijro etishmoqda. Orkestrda dutor alt, dutor primaning albatta o'z o'rni bor. Dutor altda o'ziga xos har xil shtrixlarda (terma zarb, chertma zarb, teskari zarb, bilak zarb, pissikato) kuy chalinadi. Dutor chalish usullari boyligi, turli-tumanligi tufayli orkestrda uning o'rni muhimdir. Dutor yakkasoz ijro etayotgan cholg'uga jo'rnavoz bo'lib, o'zining yoqimli va mayin tovushi bilan moslashadi. Tovush jarangini, garmoniyasini boyitib, pedal tovushlarini ushlab, kuy mohiyatini ko'tarib turadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Dutorda bir yo'la ikki tovush sadolanadi. Tersiya, kvarta, kvinta, bitta ochiq torda esa undan katta intervallar chalish mumkin. Turli tembrli asboblar kuyni bir yo'la unison, akkord, oktava ijro etishda uyg'unlik, shirali, zich sadolanishni vujudga keltiradi. Bu kompozitor va cholg'ulashtiruvchining mohirligini ko'rsatadi.

Cholg'ulashtirish jarayonida:

Dutor + rubob prima
Dutor + qashqar rubob
Dutor + afg'on rubob + tanbur
Dutor + dutor bas + g'ijjak bas + g'ijjak kontrabas variantlari chiroyli birlikni tashkil qiladi. Yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Orkestrda dutor asbobi jo'rnavozlik yo'nalishida asosiy guruh hisoblanadi.

DUTOR BAS



Dutor bas mizrobli cholg'ular guruhiga kiradi.

sozi diapazoni foydalaniladigan tovush kengligi

Mizrob yordamida pastga va yuqoriga chalish asosiy chalish usulidir. Dutor bas uchun asarlar, orkestr partiyalari bas kalitida yoziladi. Notalar yozuvidagi tovushni beradi. Orkestrda dutor bas asosan orkestr asosi, ya'ni, tayanchi hisoblanadi. Eng pastki registr notalarini chaladi. Dutor bas, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas asboblari birgalikda orkestrni ushlab turadigan guruh hisoblanadi. Shirali, zich, juda to'liq ohang beradi. Dutor bas faqatgina jo'rnavoz yo'nalishini emas, balki asar mohiyatiga qarab asosiy (solo) partiyani ham chalishi mumkin. O'zbek mumtoz musiqasi, O'zbek xalq va akademik musiqasini bezatuvchi tovushlarni ham chalish imkoniyatiga egadir.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Dutor bas	1-tor «Lya» kichik oktava; 2-tor «Re» kichik oktava; 3-tor «Sol» katta oktava; 4-tor «Do» katta oktava.	«Do» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

www.ziyouz.com kutubxonasi

DUTOR KONTRABAS





Dutor kontrabas yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Dutor kontrabas	1-tor «Sol» kichik oktava; 2-tor «Re» kichik oktava; 3-tor «Lya» katta oktava; 4-tor «Mi» katta oktava.	«Mi» katta oktavadan – «Sol» 1-oktavagacha	«Mi» kontr oktavadan – «Sol» kichik oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

4.URMA ZARBLI CHOLG'ULAR

Urma zarbli orkestrda kerakli guruhlardan hisoblanadi. Ayniqsa O'zbek mumtoz va xalq kuy qo'shiqlariga albatta ommaviylashgan doyra asbobi qo'shilishi kerak. Doyra, nog'ora asboblari o'zbek xalqining eng sevimli va O'zbekistonda keng tarqalgan cholg'ulari hisoblanadi. Doyra-chalish imkoniyati juda katta cholg'u hisoblanadi. Orkestrga o'zgacha zavq va jilo beradi.

Davrimizning oxirgi vaqtlariga kelib O'zbek kompozitor va cholg'ulashtiruvchilari doyra imkoniyatlarining barcha qirralarini ochib, juda murakkab, jozibali, zavq baxsh etuvchi virtuoz yakkasoz asarlar yaratib, orkestr javonini yanada kengaytirmoqdalar.

Urma zarbli cholg'ular kuchli va kuchsiz hissalarni berib turuvchi asosiy cholg'u bo'lganligi sababli, orkestrda alohida o'rin tutadi. Orkestrni yanada jonlantirib turadi. Urma zarblilar tarkibida yana uchburchak, bubin, tarelka, kayrok, safail, kastaneta, ksilafon asboblari ham ishlatiladi. Bu o'z o'rnida boshqa millat kuylarini o'ziga xos ijro etishda qo'l keladi.

Shuningdek rus, belorus, ukrain, ispan, sigan xalqlari asarlari ham orkestr javonidan o'rin olgan. Shu asarlarni ijro etishda yuqorida ko'rsatilgan urma zarbli asboblar o'z o'rnida ishlatiladi. Bu orkestr sadolanishini yanada boyitadi. Ayniqsa, marsh va raks xarakterli asarlarda urma zarbli asboblar roli juda muhimdir. Asarni yanada aniq ifodalab beradi. Ular orkestr ijrosidagi asarlarda uchraydigan akkordlar cho'zimini, tovush kuchayishini (kreshchendo) tovush pasayishini (diminuendo), - dinamika (*p, f*) o'zgarishlarini, boshqa o'lchovga (2/4 dan 6/8ga) o'tish, 1 qismdan 2 qismga o'tish paytlarida dirijyorning birinchi yordamchisi hisoblanadi. Eng mas'uliyatli vaqtda katta yordam beruvchi guruh hisoblanadi.

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT-RESURS MARKAZI
INV № 8529
www.ziyouz.com kutubxonasi

DOYRA



Doyra nota yozuvi 4 ta chizikka yoziladi, shundan ikkita pastki chiziq ung qo'lga, ikkita yuqorigi chiziq chap qo'lga mo'ljallanadi.

Chap qo'l



O'ng qo'l

Doyra

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		**Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi**
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Doyra	Sozlanmaydi, me'yorida quzdiriladi, umumiy partiturada bir chiziqda «bum-bak» usul shaklida yuqoridan yoki pastdan yoziladi. Yakkanavozlik asarlarida o'z yozuv nota grafikasiga ega.	-	-	-

Litavralar

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		**Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi**
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Litavralar (katta nog'oralar)	Cholg'uning o'lchamiga qarab sozlanadi, zamonaviy cholg'ular tepki bilan soz o'zgartiriladi.	«Fa» katta oktavadan – «Sol» kichik oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

Nog'oralar

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		**Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi**
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Nog'oralar	Sozlanmaydi, 2 ta, me'yorida quzdiriladi, bir chiziqda «tak-tum» usul shaklida yuqoridan yoki pastdan yoziladi.	-	-	-

www.ziyouz.com kutubxonasi

Kichik va katta baraban

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
Kichik va katta baraban	Sozlanmaydi, bir chiziqda usul shaklida yoziladi.	-	-	-

5. KAMONLI CHOLG'ULAR GURUHI

O'zbek xalq cholg'u orkestrining asosiy guruhlaridan biri kamonli cholg'ulari guruhidir. Bu guruhga g'ijjak I,II, g'ijjak alt, g'ijjak-qobuz bas va g'ijjak-qobuz kontrabaslar kiradi. Kamonli cholg'u guruhidagi asboblarning barchasi sozi, chalinish uslublari, sadolanishi simfonik orkestri kamonli kvintetiga batamom mos keladi.

Orkestrda kamonli cholg'ular guruhi asosiy, yetakchi guruh hisoblanadi. Kamonli asboblarda turli tonlikdagi asarlarni chalish qulay, hamma dinamikani ko'rsata oladi, unison, oktava, ko'p ovozli, har xil passaj, virtuoz qismlarni chalish imkoniyatiga egadir.

G'IJJAK



sozi diapozoni foydalaniladigan tovush kengligi



G'ijjaklar orkestrning barcha guruhlari bilan qo'shilganda o'zgacha jiloli sadolanadi.
G'ijjak I + g'ijjak II + g'ijjak alt
G'ijjak I + g'ijjak II + baslar
G'ijjak I + g'ijjak II + g'ijjak alt + baslar
G'ijjaklar guruhi + puflama asboblar
G'ijjak I, II + chang I, II
G'ijjaklar + rubob prima + qashqar rubob
G'ijjak I va II unison yoki g'ijjak alt unison zich shirali ohang beradi.
G'ijjak alt va g'ijjak-qobuz baslar unisoni ham yaxshi ohang hosil qiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
G'ijjak (I va II)	1-tor «Mi» ikkinchi oktava; 2-tor «Lya» birinchi oktava; 3-tor «Re» birinchi oktava; 4-tor «Sol» kichik oktava.	«Sol» kichik oktavadan – «Lya» 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

G'IJJAK ALT



sozi diapozoni foydalaniladigan tovush kengligi



Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
G'ijjak-alt	1-tor «Lya» birinchi oktava; 2-tor «Re» birinchi oktava; 3-tor «Sol» kichik oktava; 4-tor «Do» kichik oktava.	«Do» kichik oktavadan – «Lya» 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

G'ijjak alt uchun kuylar alt kalitida yoziladi. G'ijjak alt kamonli guruhida kuy (solo) yangrayotgan vaqtda qo'shimcha akkord yoki pedal tovushini qo'shish samarali jo'r ohang hosil qiladi. G'ijjak alt past va o'rta registrdagi garmoniyani orkestrdagi mizrobli guruhi bilan ijro qilsa, yoqimli ohang beradi.

G'ijjak alt + g'ijjak-qobuz bas
G'ijjak alt + afg'on rubob + dutorlar
G'ijjak alt + g'ijjak-qobuz bas + g'ijjak-qobuz kontrabas + qashqar rubob + afg'on rubob + dutorlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ko'p hollarda g'ijjak-qobuz bas kontrabas bilan oktavada juftlanadi. Agar akkord 4 yoki 5 tovushdan tashkil topgan bo'lsa, asosiy kuy g'ijjak I, II da bas tovushlari oktava juftligida g'ijjak-qobuz bas, g'ijjak kontrabasda, o'rta tovushlar albatta g'ijjak altda saqlanishi kerak. Ko'pincha cho'zimli tovushlarini bir oktavadan katta intervallik akkordlar tuzilishi akkord tovushlari bilan to'ldiriladi. Shunday variantli akkordlar bog'lanishini nazarda tutib, qo'sh notalar ijrosi g'ijjak altga topshiriladi. G'ijjak alt bilan g'ijjak-qobuz baslar unisoni zich va shirali ohang hosil qiladi. Bunda g'ijjak-qobuz baslarning tembri ustunlik qiladi. G'ijjak I, II, g'ijjak alt va baslarning unisoni *f* da kuchli va keskin, *p* da yugon va mungli eshitiladigan murakkab tembr hosil qiladi.

G'IJJAK-QOBUS BAS



G'ijjak-qobuz bas kamonli sozlar guruhiga kiradi. O'zbek xalq cholg'u asboblarini takomillashtirish laborotoriyasida g'ijjak-qobuz basning xalqchillik darajasini saqlab qolishga harakat qilingan. Qobuz qaraqalpoq xalqiga mansub asbob. O'zbekistonning ayrim xududlarida ham tarqalgan. Kamonli sozlar oilasini tashkil qilish maqsadida konstruktorlarimiz (A.I.Petrosyans, S.E.Didenko) qobuz asbobining xalqchillik darajasini saqlab qolgan holda g'ijjak-qobuz bas sozini yaratdilar.

O'zbek xalq cholg'ular orkestri kamonli sozlar guruhi simfonik orkestrining kamonli guruhiga ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

G'ijjak-qobuz bas uchun kuylar bas va tenor (1 oktava «do») kalitida yoziladi.

sozi diapozoni foydalaniladigan tovush kengligi

www.ziyouz.com kutubxonasi

Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
G'ijjak-qobuz bas	1-tor «Lya» kichik oktava; 2-tor «Re» kichik oktava; 3-tor «Sol» katta oktava; 4-tor «Do» katta oktava.	«Do» katta oktavadan – «Re» 3-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

Simfonik orkestridagi violonchel cholg'usi kabi sozlanadi, chalinadi va texnik imkoniyatlari ham katta.

Kamon bilan chalish usullari: detache, legato, staccato, martele, spiccato, ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan simni chertib (pizzicato) chalish, kamon dastasining pastki qismi bilan simga urib chalish (con lengo) usullari bor.

G'IJJAK-QOBUZ KONTRABAS



G'ijjak-qobuz kontrabas kamonli sozlar guruhiga mansub soz bo'lib, u eng pastki ovoz sohibi hisoblanadi. Kontrabas uchun kuylar bas kalitida yoziladi va yozilganidan bir oktava past eshitiladi.

Yozilishi Eshitilishi

www.ziyouz.com kutubxonasi



Cholg'uning nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilishi bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
G'ijjak-qobuz kontrabaslar	1-tor «Sol» kichik oktava*; 2-tor «Re» kichik oktava*; 3-tor «Lya» katta oktava*; 4-tor «Mi» katta oktava*.	«Mi» katta oktavadan – «Lya» 2-oktavagacha	«Mi» kontr oktavadan – «Lya» 1-oktavagacha	Yozilganidan 1 oktava past eshitiladi

G'ijjak kontrabas hajmi jihatidan katta bo'lganligi sababli yerga qo'yib chalinadi.

Cholg'uchi tikka turib, ijro etishi *shpil*, ya'ni qobuz-kontrabas tagiga o'rnatilgan qoziqni bo'yiga moslab chalinishiga tayyorlangan. G'ijjak qobuz-kontrabas, g'ijjak-qobuz bas, dutor bas sozlari birgalikda orkestrda kuchli, baquvvat ohang kasb etadi. Bu asboblar orkestr fundamentini yaratadi va asosiy guruhlardan hisoblanadi, o'zaro oktava oralig'ida juftlanib, kuchli sado beradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

II BO'LIM

AMALIY QISM

Orkestrda ijrochilik mahorati har xil darajali sozandalar bo'lganligi sababli uchta belgigacha bo'lgan tonlik kuylarini chaldirgan ma'qul. Albatta tabiiy tovush qatoriga ega bo'lgan puflama guruhlarni nazarda tutish kerak. Nay, qo'shnay, surnay asboblari chalishga qiynalmaydigan tonliklardagi asarlar bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Puflama cholg'ular uchun qulay registrda (yuqori va registrning ikkinchi yarmi) yozilgan kuylar yengil va jarangdor sadolanadi.

Qo'shnay diapazoni kichkina bo'lganligi sababli unga o'rta registrdagi kuy qismlari berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shnay texnik imkoniyati past asbob, lekin orkestrda o'z o'rni bor. U o'ziga xos mungli, ifodali sadolanadi. Agar puflama guruhlarning tovush qatorini nazarda tutib asar tonligini o'zgartirsak, asar xarakteriga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Orkestrdagi boshqa guruhlarga tonlik tanlash murakkablik tug'dirmaydi.

1. Kuyni moslashtirish

KUY – musiqaning asosi, asar mazmunining eng asosiy tomonini ifodalaydi.

Musiqa asari faqat kuydangina iborat bo'lishi mumkin emas. Garmoniya, kontrapunkt ovozlar, pedal tovushlar, har xil passaj yo'llari kuydan ajralmasligi kerak. Ularning hammasi bitta maqsadda – musiqaning mohiyatini tinglovchiga to'la-to'kis va yorqin ifodalab berishga xizmat qiladi. Kuylarni cholg'ulashtirish ohang jihatidan mumkin bo'lgan va to'g'ri moslash variantlarini qidirib topish kompozitor va moslashtiruvchining vazifasidir. Musiqa asarini cholg'ulashtirish nihoyatda katta mas'uliyat talab qiladi. Bunday paytda faqat kuyga emas, balki garmoniyasiga, registr (tembr)lariga, jo'r bo'lishda cholg'u asboblarini birlashtirishga, kuyni cholg'u asboblariga taqsimlashga katta e'tibor berish kerak.

Asar garmoniyasi kuyni quvvatlaydi, to'g'ri taqsimlangan soz ohangni jozibali, yoqimli mohiyatini yuqori darajaga ko'taradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek orkestrdagi har bir guruhning o'z o'rni bor. Chalish uslublari darajasi, imkoniyati, jarangdorligi bilan farqlanar ekan, ularning birlashmasi yangi murakkab tembr sadolanishini kashf etadi. Bunday qo'shilishlarga moslashtiruvchi juda extiyotlik va savodli nuqtai nazarda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Orkestrga moslashtirilgan asar dramaturgiyasiga ham ahamiyat berish kerak. Har bir obrazni ochib berishda cholg'u asboblar guruhi imkoniyatiga ham ahamiyat berish kerak. Asarning past (*p*), mungli chalinadigan qismini albatta bitta yoki ikkita guruhlar chalgani ma'qul. Asarning (*ff*) qo'lminasiya qismida akkordlar zich joylashganligi sababli orkestr guruhlarining hammasi ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir. Qahramonona, tantanali asarlarni, chaqiriq va signal turidagi kuylarni chalishda puflama, mizrob va urma zarbli cholg'ularga bergan ma'qul.

Kuychang (cantabile), nota cho'zimlari bir-biri bilan ulangan (legato) asarlarni kamonli asboblar guruhiga bergan ma'qul.

Rus, belorus, ukrain xalqlarining milliy kuy raqslarini ijro etish ko'proq mizrobli va zarbli urma guruhga berilsa yaxshi. Orkestr diapazonining o'rta va past registriga to'g'ri kelgan kuylar afg'on rubobi, dutor, dutor bas, g'ijjak alt, g'ijjak bas asboblariga topshirilishi mumkin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Unison juftlanish

Orkestrda kuy ijro qilish uchun bir nechta cholg'ularni unison holda birlashtirish mumkin. Odatda har bir guruhning birinchi partiyasi unison yoziladi. Har xil tembrli asboblar unisoni o'ziga xos jiloli, zich eshitiladi.

TAMBURIN

L. Ober



www.ziyouz.com kutubxonasi

Puflama asboblar chang bilan unison bo'lishi mumkin. Tovush chiqarish usullari har xil bo'lganligi sababli *legato*da tembrlari to'la qo'shilmaydi, nay va chang *pizzicato* chalsa ohangdor sado hosil bo'ladi.

TAMBURIN

L. Ober



www.ziyouz.com kutubxonasi

Chang asbobi prima rubob, g'ijjak bilan unisoni yaxshi sado beradi. Masalan:

TAMBURIN

L. Ober



www.ziyouz.com kutubxonasi

Prima rubob va qashqar ruboblarining unisoni umumiy bir tembrda aniq, to'liq tovush hosil qiladi.

TAMBURIN

L. Ober



Afg'on rubobi va qashqar rubobi unisonligida qashqar rubobi tembri ustunlik qiladi.

YOSHLAR SYUITASI

M. Leviyev



www.ziyouz.com kutubxonasi

Qashqar rubobi dutor baslar bilan unison bo'lishi mumkin, bu holda qashqar rubob past registrda chalishi kerak. Qashqar rubobi va tanburlarning qo'shilishi ajoyib ohang hosil qiladi. Mizrobli guruh asboblari bas guruhlari bilan qo'shilsa hamisha yaxshi ohang beradi.

YOSHLAR SYUITASI

M.Leviyev



www.ziyouz.com kutubxonasi

Tembr jihatidan turli cholg'u asboblari g'ijjak + surnay + qashqar rubob + prima rubob; g'ijjak + qo'shnay + afg'on rubob; g'ijjak + nay + chang; g'ijjak alt + g'ijjak-qobuz bas + qo'shnay + dutor bas + afg'on ruboblar qo'shilmalari kuyga tamomila yangi tembrning zich jarangdorligini baxsh etadi. Asboblar tembrlarini nazarda tutib, unison juftligini, turli guruhlar birlashmalarini mohirona bajarish mumkin. Tembrlari bir-biriga juda mos kelsa orkestr sadolanishi chiroyli, shirali va o'zgacha jiloli eshitiladi.

KULCHA NON

I. Hamroyev



www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Oktava juftlanish

Orkestrdagi har bir guruh oktava juftlanishi mumkin:

Puflama asboblar o'zaro,
Puflama asboblar + changlar,
Puflama asboblar + prima rubob,
Puflama asboblar + qashqar rubob + afg'on rubob,
Puflama asboblar + g'ijjaklar.
Masalan:

QO'SHIQ VA RAQS

A. Liviyev



KOROBEYNIKI
(Rus xalq qo'shig'i)

V. Gleyxman
qayta ishlagan



www.ziyouz.com kutubxonasi

GAYTAGI

A. Geray



Chang + nay I
Chang + prima rubob
Chang + g'ijjak I, II
Prima rubob + g'ijjak I, II
Qashqar rubob + prima rubob + afg'on rubob
Qashqar rubob + dutor bas + g'ijjak alt + g'ijjak-qobuz bas + g'ijjak-qobuz kontrabas.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Kuy nafaqat ikki, balki uch oktava oralig'ida ham bayon qilinishi mumkin.

NURXON ARIYASI

«Nurxon» musiqali dramasidan

T.Jalilov



www.ziyouz.com kutubxonasi

Pastki registrdagi kuy oktava oralig'ida dutor bas, g'ijjak-qobuz bas va g'ijjak-qobuz kontrabaslarda, ba'zida g'ijjak alt, afg'on rubobni qo'shgan holda oktava oralig'ida ifodalanadi.

RAQS

B. F. Giyenko



4. Kuyning ikki va uch ovozli ko'rinishi

Musiqa asarlarida ikki va uch ovozli kuy bayoni uchraydi. Ko'p ovozli musiqa bayonining hamma (3ta) ovozlarini bitta guruhga topshirish mumkin.

Masalan: 1-ovoz prima rubobga, 2-ovoz qashqar rubobga, 3 ovoz afg'on rubobga, tembri bir xil bo'lgan kamonli guruhga, 1-ovoz g'ijjak I, 2-ovoz g'ijjak II, 3 ovoz g'ijjak altga topshiriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

NURXON ARIYASI

«Nurxon» musiqali dramasidan

T.Jalilov



Ko'p ovozli kuylarda odatda mizrobli guruhga topshiriladi. Birinchi ovozni prima rubob chalsa, ikkinchi ovozni qashqar rubob, uchinchi ovozni afg'on rubob chaladi.

NAVRO'Z UFORISI

N.Norxo'jayev



www.ziyouz.com kutubxonasi

Ko'p hollarda kuy originalining ikkinchi va uchinchi ovozi boshidan oxirigacha davom etmasligi mumkin. Bunda ba'zan birinchi ovozdan farqlanib, ba'zan u bilan qo'shilib ketadi. Cholg'ulashtirishda birinchi va ikkinchi ovozlar boshidan oxirigacha izchillik bilan amalga oshiriladi. Kuyni ikki yoki uch ovozga unison shaklida taqsimlash uchun oldindan tayyorgarlik kurish zarur. Bunda ularning unison qo'shilishi frazani oxirigacha yetkazadi.

YOSHLAR SYUITASI

II qism

M. Leviyev



www.ziyouz.com kutubxonasi

Agar kuy yuqori registrda juftlansa, ikkinchi ovoz ham shunga monand tarzda juftlanadi. Bunda oktava balanddagi ovoz nayga va g'ijjak I, II ga yuklatiladi. Juftlangan ikkinchi ovoz qashqar rubobga, g'ijjak altga, yuklatiladi.

FESTIVAL VALSI

X. Rahimov



www.ziyouz.com kutubxonasi

5. Jo'rovozlikni ifodalash

Jo'rovozlik turlari.
Jo'rovozlikning akkordli va figurali turlari uning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi. Akkordli turida uning barcha tovushlari bir vaqtda ifodalanadi.

RAQS

F.Nazarov



www.ziyouz.com kutubxonasi

Figurali turda esa akkordli tovushlar navbati bilan keladi.

Figurali jo'rnavozlikning keng tarqalgan shakli *ritmik figurasiya* deb ataladi va u navbat bilan keladigan akkord hosil qiluvchi garmonik figurasiya deb ataluvchi tovushlar yig'indisidan tashkil topadi.

NURXON ARIYASI

«Nurxon» musiqali dramasidan

T.Jalilov



www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'lum bir asarning orkestrdagi jo'rovozlik ifodasi fortepianoga mo'ljallangan jo'rovozlik ifodasidan farq qiladi. Shuning uchun ham cholg'ulashtirishda akkordlar tuzilishi, ularning joylashuvi va akkordlar qo'shilishidagi ohangdoshlikka o'zgartirish kiritishga to'g'ri keladi.

PESNYA DRUZEY

G. Gladkov



www.ziyouz.com kutubxonasi

PESNYA DRUZEY

G. Gladkov



www.ziyouz.com kutubxonasi

6. Orkestr cholg'ulari o'rtasida akkord tovushlarini taqsimlash

Orkestr cholg'ulari o'rtasida akkord tovushlari odatda quyidagicha taqsimlanadi: bas oktavaga juftlangan holda dutor bas, g'ijjak-qobuz bas va g'ijjak-qobuz kontrabaslarga topshiriladi. Asosiy kuy orkestrning aniq biror guruhiga topshirilsa, qolgan tovushlar bulardan tashqari qolgan asboblarga yuklatiladi.

YOSHLAR SYUITASI

M. Liviyev



www.ziyouz.com kutubxonasi

Bas tovushlarining oktava juftlanishida pastki ovoz g'ijjak-qobuz kontrabasga beriladi. dutor bas va g'ijjak-qobuz bas unison chaladi.

Kamroq jo'rovozlik talab qilinadigan hollarda faqat mizrobli asboblar yoki kamonli asboblar *pizzicato* chalgani ma'qul.

TAMBURIN

L. Ober



www.ziyouz.com kutubxonasi

To'liq jo'rovozlik talab qilingan (ayniqsa, kuy unison va oktava juftlangan) joylarda barcha guruhlar va asboblardan keng miqyosda foydalaniladi.

NAVOZISHI DUTOR

K. Qurboniyon



www.ziyouz.com kutubxonasi

Rivojlangan, tugallangan kontrapunkt yaratish uchun kompozitorlik malakalarini egallash zarur bo'ladi.

7. Zarbli cholg'ulardan foydalanish

Zarbli cholg'ulardan asosan usulni yanada aniq berish, umumiy tovush kuchini oshirish va o'ziga xos kolorit baxsh etish uchun foydalaniladi. Asosan xalq asarlarini yorqin ifodalash uchun shu xalqlarga tegishli urma asboblari ahamiyatlidir. O'zbek xalq asarlariga doyra, nog'ora, qayroq tosh, rus xalq kuylariga treugolnik, buben va hokazolar kiradi. Ayniqsa marsh, raqs, tantana xarakteridagi asarlarda baraban, tarelka, muqaddima qismlarida litavra rezi bilan akkordlar cho'zimini kuchaytirish hamda *creshendo*ning turli ko'rinishlarini ifoda etish mumkin. Ayrim asarlarda ushbu cholg'ular jo'rovozlik usulini yanada aniq ifodalab beradilar, asarga joziba, o'ktamlik baxsh etadi. Keyingi vaqtda zarbli asboblar faqat usul berish emas, balki yakkaxon soz vazifasini ham bajarmoqda.

8. O'zbek xalq cholg'ular orkestri partiturasini tayyorlash

Orkestr partiturasini tuzishdan oldin xalq cholg'ulari asboblarini alohida guruhlarga bo'lib chikish kerak. Ya'ni, puflama cholg'ular, torli-urmalar, mizrobli cholg'ular, urma zarbli va kamonli cholg'ulardir. Har xil guruh uchun kichik bir asarni cholg'ulashtirib, nazariy tomondan yondoshgan holda o'rganib chiqish lozim. Har bir guruh yaxshi o'rganilib chiqilgach, umumiy butun orkestr uchun asar cholg'ulashtiriladi.

Har bir guruhdagi cholg'ular uchun partiyalar tartib bilan yozilishi tavsiya etiladi.

9. Partitura va uni shakllantirish

Orkestr uchun yozilgan asarlar partitura ko'rinishida bo'ladi. Moslashtirish ish jarayonida (chernavoy) takt chiziqlari, kaliti, asarning tonlik belgisi, sanog'i siyohda, nota yozuvlari qalamda yoziladi. Tayyor asar partiturasi siyohda yoziladi. Hozirgi davrda bularning barchasi kompyuterda turli nota dasturlari asosida amalga oshirilmoqda.

Partiturada partiyalarning joylashish tartibi quyidagicha:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Partituraning chap tomonida har bir guruh cholg'ulari qavs bilan birlashtiriladi. Orkestrning birga guruhlarini birlashtirib turuvchi chiziq akkolada deb nomlanadi.

Nota chizig'i boshiga har bir asbob nomlari yozib ko'rsatiladi. Takt chiziqlari har bir guruh uchun alohida chiziladi. Har bir cholg'u kalitlari nota chizig'i boshiga qo'yiladi.

Partiturani yozish vaqtida olingan asarni qismlarga (4,8 yoki 16 taktdan) bo'lib, ularga raqam belgilarini (1, 2 sifra) qo'yish kerak. Raqam belgilari takt hisobiga qaramasligi ham mumkin. Asardagi kuyning sadolanishi (fraza), qaytarilishi, fermata belgisi uchragan joyga, asar tezligi yoki sanog'i o'zgargan joylarga ham qarab sifralar qo'yiladi. Qaytarish belgilari repriza, fonar, segna, 1,2 voltalar oktavaga ko'tarish yoki tushurish belgilari partiturada aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart. Barcha dinamik belgilar va shtrixlar har bir partiya ostiga qo'yib chiqiladi. Partituraga chiroyli, notalari aniq yozilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. Orkestr partiyalarini tayyorlash

Orkestr partiyalari har bir cholg'u uchun alohida kuchiriladi. Zarbli cholg'ular bundan mustasno bo'lib, ularning hammasi uchun bitta partiya bo'lishi mumkin.

Orkestr partiyalariga partiturada o'z ifodasini topgan barcha dinamik va sur'at belgilari, harf, raqam va boshqa kursatgichlar ko'chirib yozilishi zarur.

Bir necha taktlarga cho'ziladigan pauzalar quyidagicha ifodalanadi:



Agar, bunday pauza davomida yangi bir sur'at ko'rsatgichi yoki belgi tonlik o'zgarishlar uchrasa, ular partiyada albatta ko'rsatilishi kerak:

Fermata qo'yilgan takt alohida ko'rsatilishi shart.

Orkestr partiyalarida takrorlanib keluvchi taktlarni qisqartirib yozish mumkin:

www.ziyouz.com kutubxonasi

11. MUSIQIY ATAMALAR

Vazmin sur'atlar

Largo	- lyargo	– juda cho'zib, keng;
Lento	– lento	– cho'zib;
Adagio	– adajio	– og'ir, vazmin.

O'rtacha sur'atlar

Andante	- andante	- sekin-asta, oshiqmasdan;
Andantino	- andantino	- andantedan sal tezroq;
Moderato	- moderato	- o'rtacha tezlikda, shoshilmay;
Sostenuto	- sostenuto	- salobatli;
Allegretto	- allegretto	- bir qadar tezroq;
Allegro moderato	- allegro moderato	- o'rtacha tez.

Tez sur'atlar

Allegro	- allegro	- tez;
Vivo	- vivo	- jonli;
Vivace	- vivache	- jadu-jadal bilan;
Presto	- presto	- tez, oshiqib;
Prestissimo	- prestissimo	- juda tez, eng tez.

Sur'atlarni tezlashtirish va sekinlashtirish belgilari

Accelerando	– achchelerando	– tezlashtirib;
Animando	– animando	– jonlantirib;
Rallentando	– rallentando	– sekinlashtirib;
Ritardando	– ritardando	– og'irlashtirib, kechiktirib;
Ritenuto	- ritenuto	- sekin-asta to'xtatib;
Stretto	– stretto	– ixchamlatib;
A tempo, tempo I	- a tempo, tempo primo	– avvalgi sur'atga qaytish.

Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar

Maestoso	- maestoso	- tantanali;
Ekspressivo	– ekspressivo	– ta'sirli;
Cantabile	- kantabile	- kuylab;
Dolce	- dolche	- nozik;
Grasiozo	– grasiozo	– latif;
Animato	– animato	– jonli;
Appasionato	– appasionato	– zavqli;
Non troppo	- non troppo	- o'rtamiyona;
Molto	– molto	– juda, nihoyatda;
Poco a poco	- poko a poko	- oz-oz, sekin-asta;
Subito	– subito	– to'satdan;
Sempre	– sempre	– doimo, hamisha;
Meno mosso	– meno mosso	– sekinroq;

www.ziyouz.com kutubxonasi

Legato	– legato	– bog'lab;
Non legato	– non legato	– bog'lamasdan, legato yo'q;
Simile	– simile	– shu tarzda, xuddi shunday davom ettirish.

12. Dinamik belgilar

mf	– metsso forte	– ortacha kuchli;
f	– forte	– kuchli;
ff	– fortissimo	– juda kuchli;
p	– piano	– mayin, kuchsiz;
pp	– pianissimo	– juda mayin, juda kuchsiz;
	– kreshchendo	– tovushni asta-sekin kuchaytirish;
	– diminuendo	– tovushni asta-sekin susaytirish;
sf	– sforsando	– keskin, kuchli zarb;
sp	– subito piano	– keskin, mayin zarb;
>	– aksent	– tovushni ajratib, baland chalish.

13. Orkestr moslashtiruvchisi uchun ko'rsatma

O'zbek xalq cholg'ulari orkestriga biror asarni moslashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan har bir moslashtiruvchi o'ziga talabchan, izlanuvchan bo'lishi kerak. Ko'p qo'llanmalarni ko'zdan kechirib, o'qib-o'rganish kerak. E'tiborni tortadigan har bir jihatlarini erinmasdan, shoshilmasdan o'rganib chiqib, vazifasini bajarsa natijasi yaxshi bo'ladi. Moslashtiruvchi orkestr ijrosida ko'p asarlar eshitib, ularni tahlil qila olishi lozim. Orkestr ijrosidagi asarlarni esda qoldirib, fikrlab, ayrim jihatlarini ko'z oldiga keltira olsa bu jarayon maqsadga muvofiqdir. Bu jihatlar moslashtirish jarayoniga yordam beradi.

Moslashtiruvchi har bir asarni biror bir cholg'uda chalib, eshitib, uni cholg'ularga taqsimlay olishi kerak. Nota yozuvi chiroyli, tushunarli, aniq, har bir elementlariga katta ahamiyat bilan qarashi zarur.

Agarda partitura tushunarsiz, kerakli nyuanslari aniqlanmagan, pala-partish bo'lsa, orkestr bilan ishlash jarayonida kamchiliklar ko'payadi, oldiga qo'ygan vazifa natijasi qoniqarsiz baholanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

III BO‘LIM

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U ORKESTRI UCHUN MOSLASHTIRILGAN PARTITURALAR

www.ziyouz.com kutubxonasi

UMID

E.Salixov



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi

POPURRI



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi


18
pizz.
pizz.
pizz.
pizz.



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi



www.ziyouz.com kutubxonasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.I.Petrosyans. Instrumentovedeniye «Uzbekskiy narodniy instrumenti». Tashkent. 1951.
2. T.Vizgo, A.Petrosyans. Uzbekskiy orkestr narodnix instrumentov. Tashkent. 1962.
3. A.X.Liviyev. Rubob orkestri tashkil qilish metodikasi. Toshkent. 1974.
4. A.X.Liviyev. O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlari. Toshkent. 1971.
5. H.Nurmatov. Qashqar rubobi. Toshkent. 2003.
6. Z.Turapov. Dutor bas. Toshkent. 2004.

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA

So'zboshi 3

I BO'LIM.
NAZARIY QISM

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning tarkibiga kiradigan guruhlar 4
Puflama cholg'ular guruhi 7
Torli urma cholg'u guruhi 10
Mizrobli cholg'ular guruhi 10
Urma zarbli cholg'ular 15
Kamonli cholg'ular guruhi 16

II BO'LIM.
AMALIY QISM

Kuyni moslashtirish 19
Unison juftlanish 20
Oktava juftlanish 26
Kuyning ikki va uch ovozli ko'rinishi 29
Jo'rovozlikni ifodalash 33
Orkestr cholg'ulari o'rtasida akkord tovushlarini taqsimlash 37
Zarbli cholg'ulardan foydalanish 40
O'zbek xalq cholg'ulari orkestri partiturasini tayyorlash 40
Partitura va uni shakllantirish 40
Orkestr partiyalarini tayyorlash 42
Musiqa atamalar 43
Dinamik belgilar 44
Orkestr moslashtiruvchisi uchun ko'rsatma 44

III BO'LIM

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun moslashtirilgan partituralar 45

E.Salixov. Umid 46
F.Alimov. Popurri 68

www.ziyouz.com kutubxonasi

CHOLG‘USHUNOSLIK

Pedagogika universiteti, institutlar va cholg‘ushunoslik fani mavjud barcha oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma

www.ziyouz.com kutubxonasi